YANGI ZAMON BUXGALTERIYASINI TAKOMILLASHISH YO’LIDA SUN’IY INTELLEKTNING TUTGAN ROLI VA AHAMIYATI

[1]Rashidova Ra’noxon Iskandarovna, [2]Shodiyev Erkin Temirovich
[1]TIQXMMI Milliy tadqiqot universiteti Iqtisod fakulteti 2-bosqich talabasi, [2]TIQXMMI Milliy tadqiqot universiteti PhD

https://doi.org/10.5281/zenodo.10160227

Аннотация. *Maqolada sun‘iy intellektning buxgalteriya hisobini takomillashtirishdagi ahamiyati va vazifasi o‘rganilgan. Jumladan moliyaviy texnologiyalarning buxgalteriya sohasiga tadbiq etishga ta’sir qiluvchi muammolar va ularning yechimi bilan bog‘liq masalalar o‘rganilgan.*

Калит сўзлар: *sun’iy intellekt, yangi zamon buxgalteriyasi, innovatsiyalar, FINTECH kompaniyalari, moliyaviy texnologiyalar*

Аннотация. *В статье рассматривается значение и роль искусственного интеллекта в совершенствовании бухгалтерского учета. В частности, были изучены проблемы, влияющие на применение финансовых технологий в сфере бухгалтерского учета и вопросы, связанные с их решением.*

Ключевые слова: *искусственный интеллект, современный бухгалтерский учет, инновации, FINTECH компании, финансовые технологии*

Abstract. *The article examines the importance and role of artificial intelligence in improving accounting. In particular, problems affecting the application of financial technologies in the field of accounting and issues related to their solution were studied.*

Keywords: *artificial intelligence, modern accounting, innovations, FINTECH companies, financial technologies.*

Kirish. Keyingi yillar mobaynida xalqaro standartlarga to‘la to‘kis javob beruvchi buxgalteriya hisobi tizimini yaratish borasida ko‘pgina islohotlar olib borilmoqda. Buxgalteriya hisobidan foydalanuvchilar doirasi ancha kengayib borayotganligi integratsiya jarayonlari chuqurlashtirilayotganligi, qo‘shma korxonalar barpo etilayotganligi, jahon moliya bozoriga chiqilayotganligi, sarmoyador, ishchi kuchi va valyutaning ayrim mamlakatlar o‘rtasida erkin harakatlanishi zarurligi buxgalteriya hisobi tizimini jahon standartlari asosida zamonaviy innovatsion texnologiyalardan unumli foydalanishni taqozo etadi.

Fintech (moliyaviy)-bu moliyaviy muassasalar va kompanoyalarga biznesning moliyaviy jihatlarini boshqarishga ko’maklashadigan texnologiyalar hisoblanadi.Ular sirasiga:dasturiy ta’minot,ilovalar,jarayonlar va biznes modellar kiradi. Shuningdek, Fintexnologiyalar tech tushunchasini banklarga bank-moliya bozoridagi zamonaviy raqobatchi tarmoq sifatida ko’rish mumkin.

Sun’iy intellekt hozirgi paytda odamlar tomonidan amalga oshirilayotgan qarorlarni qabul qilish vazifalarini tobora ko'proq o'z zimmasiga olayotganligi sababli, sun'iy intellekt yanada tubdan o'zgarishlarga imkon beradi. Bunday misol, soliqni maksimal darajada samaradorligini oshirish uchun guruhni global tuzish uchun sun'iy intellektdan foydalanishi mumkin.

Tadqiqotchi olim Paulo Xorxe Ribeyroning ta’kidlashicha: Sun’iy intellect shuningdek, buxgalteriya bo'limlarida, xususan, buxgalteriya hisobi, moliyaviy hisobot va auditda sezilarli o‘zgarishlar kiritmoqda. AI texnologiyalari ma’lumotlarni kiritish kabi takrorlanuvchi vazifalarni

avtomatlashtirishi mumkin, bu esa buxgalteriya mutaxassislariga ko‘proq strategik tashabbuslarga e’tibor qaratish imkonini beradi.

Bu sohadagi muhim misol, buxgalteriya hisobini yuritish imkoniyatlarini yaxshilash uchun AI texnologiyalarini joriy etgan bulutga asoslangan buxgalteriya dasturiy ta'minoti kompaniyasiga tegishli. Ular buxgalteriya hisobi bilan bog‘liq ko'plab takrorlanuvchi vazifalarni, masalan, ma'lumotlarni kiritish va toifalarga ajratishni avtomatlashtirish uchun mashinani o'rganish algoritmlaridan foydalanadilar. Bu buxgalteriya hisobi uchun zarur bo'lgan vaqt va kuchni sezilarli darajada qisqartirdi, buxgalteriya mutaxassislariga ko'proq strategik tashabbuslarga e'tibor qaratish imkonini berdi.

Moliyaviy hisobotda AI texnologiyalari odamlarga ko'rinmaydigan naqsh va tendentsiyalarni aniqlash uchun katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilishi mumkin. Bu buxgalteriya hisobi bo'yicha mutaxassislarga moliyaviy ko'rsatkichlarni yaxshilash mumkin bo'lgan sohalarni aniqlashga yordam beradi, bu esa ko'proq xabardor qarorlar qabul qilishga olib keladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrdagi “Sun’iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4996-son Qarori va boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirish sun‘iy intellektning buxgalteriya hisobi va audit hamda moliya sohalariga tatbiq etgan holda takomillashtirishga xizmat qiladi.

Tahlil va natijalari:

“Raqamli O‘zbekiston — 2030” Strategiyasiga muvofiq hamda sun’iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish va ularni mamlakatimizda keng qo‘llash, raqamli ma’lumotlardan foydalanish imkoniyatini va ularning yuqori sifatini ta’minlash, ushbu sohada malakali kadrlar tayyorlash uchun qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida 2021-2022-yillarda sun’iy intellekt texnologiyalarini o‘rganish va joriy etish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturiga muvofiq:

- sun’iy intellektni qo‘llashning asosiy yo‘nalishlari va tamoyillarini, shuningdek, yaqin va uzoq istiqbolda ushbu sohani kompleks shakllantirish uchun shart-sharoitlarni belgilovchi Sun’iy intellektni rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish;
- iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohada, davlat boshqaruvi tizimida sun’iy intellekt texnologiyalarini ishlab chiqish va ulardan foydalanishda yagona talablar, javobgarlik, xavfsizlik va shaffoflikni belgilovchi normativ-huquqiy bazani ishlab chiqish;
- aholi manfaatlari yo‘lida davlat xizmatlari ko‘rsatish sifatini yaxshilash, shuningdek, ma’lumotlarni qayta ishlashda davlat organlarining samaradorligini oshirish uchun sun’iy intellekt texnologiyalaridan keng foydalanish;
- foydali texnologik yechimlarni ishlab chiqish bo‘yicha fundamental va amaliy ilmiy tadqiqotlarni o‘tkazish va ularni keyinchalik tijoratlashtirishni rag‘batlantiruvchi sun’iy intellekt sohasida innovatsion ishlanmalarning mahalliy ekotizimini yaratish;
- sun’iy intellekt texnologiyalarini qo‘llovchi dasturiy ta’minot ishlab chiquvchilariga raqamli ma’lumotlardan foydalanish uchun sharoit yaratish, shuningdek, davlat organlari va tashkilotlarining tegishli ma’lumotlarini tezkor raqamlashtirishni ta’minlash;

- sun’iy intellekt sohasidagi ilmiy ishlar va ishlanmalarning investitsion jozibadorligini shakllantirish, shu jumladan tovarlarning (ish va xizmatlarning) ichki va tashqi bozorlarda raqobatbardoshligini oshirish;
- mahalliy korxonalar va mutaxassislarning sun’iy intellekt sohasidagi axborot resurslari va bilimlardan foydalanish imkoniyatini ta’minlash, shuningdek, zarur ta’lim muhitini rivojlantirish;
- qo‘shma xalqaro tadqiqot faoliyatini amalga oshirish, kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish, respublikamizning nufuzli reytinglar va indekslarda pozitsiyasini yaxshilash maqsadida sun’iy intellekt va uni qo‘llash texnologiyalari sohasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish;

Shuningdek, dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki rezidentlarini jalb qilgan holda Sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish bo‘yicha 2021-2022-yillarda amalga oshiriladigan tajriba-sinov loyihalar ro‘yxatiga muvofiq:

- qishloq xo‘jaligi sohasida: erni masofadan zondlash ma’lumotlari asosida tuproq va qishloq xo‘jaligi ekinlari holatini, shuningdek, qishloq xo‘jaligi texnikasi, shu jumladan kombaynlar ishini monitoring qilish jarayonida sun’iy intellekt texnologiyalarini qo‘llash;
- bank sohasida: tijorat banklari faoliyatini monitoring qilish samaradorligini oshirish va ular tomonidan tartibga solish talablari (SubTech va RegTech) bajarilishini soddalashtirish, shuningdek, bank xizmatlari ko‘rsatish sifatini tahlil qilish, foydalanuvchilarni masofadan biometrik identifikatsiyalash (Face-ID) va kredit tavakkalchiliklarini baholash uchun sun’iy intellekt texnologiyalarini qo‘llash;
- moliya sohasida: budjet xarajatlari, pensiya, ijtimoiy va sug‘urta to‘lovlari, shuningdek, nafaqa to‘lovlarini tahlil qilish va samaradorligini oshirish uchun sun’iy intellekt texnologiyalarini qo‘llash;
- soliq sohasida: yuridik shaxslarning soliq tushumlarini tahlil qilish, soliq to‘lovlaridagi tafovutlarni aniqlashda sun’iy intellekt texnologiyalarini qo‘llash masalalariga Hukumat darajasida alohida e’tibor qaratilgan.

Raqamli texnologiyalar vazirligi ma’lumotlariga qaraganda, bugungi kunda 23 ta bank, 5 ta yirik davlat tashkiloti ushbu tizimdan doimiy foydalanmoqda, ro‘yxatdan o‘tganlar soni esa 2,5 millionga yetdi.

MyID birinchi navbatda shaxsni biometrik identifikatsiyalash imkonini beradi va natijada jarayonga ketadigan vaqtni 1 soniyaga tushiradi, hujjatlarni tekshirish butkul avtomatlashadi.

Yana bir o‘ziga xos loyiha – qishloq xo‘jaligi yerlari va ekinlari monitoringi loyihasi doirasida kosmosdan va dronlar bilan olingan suratlar, real vaqt rejimida to‘planadigan ma’lumotlar asosida dalalar sun’iy intellekt yordamida monitoring qilinib, ularning geoaxborot tizimi yaratildi.

Biroq kadrlar muammosi hamon ushbu yo‘nalishdagi eng muhim masaladir. 2022/2023 o‘quv yilidan “Sun’iy intellekt” yo‘nalishida kadrlar tayyorlash bo‘yicha jami 6 ta oliy ta’lim muassasalarida 245 ta kvota ajratildi. Shuningdek, alohida “Raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt” doktorantura yo‘nalishi ochilganini qayd etish lozim.

R.Fayziyevning fikricha iqtisodiyotni boshqarishdagi o’zgarishlar,bozor munosabatlariga o’tish buxgalteriya hisobini tashkil qilish va olib borishga katta ta’sir o’tkazdi.Buxgalteriya hisobining xalqaro tizimlariga o’tilmoqda,bu uning uslubiyatining yangi shakllarini ishlab chiqishni taqozo etadi.Buxgalteriya hisobining axborot tizimiva uni

kompyuterda ishlab chiqishni tashkil qilishning an’anaviy shakllari katta o’zgarishlarga ega bo’ladi. Hisobchidan korxona moliyaviy holatining obyektiv baholarini bilish, moliyaviy tahlil usullarini egallash, qimmatli qog’ozlar bilan ishlashni bilish, bozor sharoitida pul mablag’lari investitsiyalarini asoslash va boshqalar talab qilinadi va bularning barchasiga zamonaviy texnologiyalar bilan ishlashni bilish muhim hisoblanadi.

Ushbu sun’iy intellekt inqilobi yaqin orada sekinlashishi kutilmaydi. Darxaqiqat, mutaxassislar 2030 yilga qadar sun'iy intellekt texnologiyasi bilan 800 millionga yaqin ish o'rinlari almashtirilishini taxmin qilishmoqda. Dastlab, sun'iy intellekt texnologiyasi va ish joyidagi avtomatizatsiya nafaqat pushti va ko'k rangli ishchilarga ta'sir qilgandek edi.Ushbu texnologiya rivojlanib, kuchliroq bo'lib borayotganligi sababli, professional, shu jumladan buxgalterlar, kelajakda o'zlarining martabalari uchun nima bo'lishini va agar sun'iy intellekt o'zlarining ishlarini eskirgan deb hisoblasa, tashvishlana boshladilar.

AI texnologiyasi allaqachon soliqni tayyorlash, ish haqi va tekshirishlar kabi ko'plab buxgalteriya funktsiyalarini bajarishga qodir. Xero, Intuit va Sage kabi ko'plab etakchi buxgalteriya dasturlari provayderlari o'zlarining dasturiy ta'minotlariga sun'iy intellect texnologiyalarini kiritdilar, masalan, banklarni solishtirish, hisob-kitoblarni turkumlash, risklarni baholash va audit jarayonlari, masalan, xarajatlarni taqdim etish va hisob- kitoblarni to'lash shular jumlasidandir.

Hozirgi kunda buxgalteriya hisobi ishlarini tashkil qilishga qo‘yilgan eng asosiy talab — bu uning kam xarajatli va sodda bo‘lishligidir. Korxonada hisob ishlari ana shunday tashkil etilgandagina, buxgalteriya hisobi yuqori samaraga hamda yaxshi natijalarga erishishi mumkin. Buning uchun esa, eng avvalo, har bir korxonaning o‘ziga xos tarmoq xususiyatlarini va boshqa jihatlarini chuqur o‘rganish lozim. Har bir korxonada tashkil etilgan buxgalteriya hisobi xo‘jalik faoliyati jarayonida sodir bo‘layotgan xo‘jalik muomalalarini uzluksiz kuzatish, kuzatish natijalarini son ko‘rsatkichlarida ifodalash, keyin ularni yoppasiga maxsus hujjatlarda aks ettirishni ta’minlash lozim. Shu bilan birgalikda korxona biznes-rejasini va kelgusidagi strategik dasturlarini tuzishda kerakli ma’lumotlar bilan ta’minlashi hamda ularning bajarilishi ustidan amaliy ravishda nazorat olib borishi kerak.

Xulosa: Hozirgi kunda buxgalteriya sohasida sun’iy intellektning ahamiyati kundan-kunga ortib bormoqda va buni yanada rivojlantirish va uning rivojlanishi uchun harakat qilishimiz judaa ham muhim vazifalarimizdan biridir. Chunki, ushbu globallashuv zamonida ‘sun’iy ong’ yetib bormagan sohaning o’zi qolmadi. Shu jumladan, buxgalteriya hisobining zamonaviy avtomatlashtirilgan dasturiy ta’minotlarini amaliyotga keng joriy qilinishi moliyaviy texnologiyalar kompaniyalarining ham moliyaviy bozorlardagi raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrdagi “Sun’iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4996-son Qarori.

3. D.R. O‘ng‘arov, S.Sh. Eraliyeva. Sun’iy intellektning bugungi kundagi ahamiyati. Science And Innovation International Scientific Journal Volume 1 ISSUE 8 UIF-2022: 8.2 | ISSN: 2181-3337
4. O.X. Otaqulov, G.A. Pulatova, G. G.Pulatov. Sun’iy intellekt va uning insoniyat faoliyatida tutgan o’rni. SCIENTIFIC PROGRESS VOLUME 2 | ISSUE 8 | 2021 ISSN: 2181-1601
5. https://kun.uz/uz/news/2023/10/26/ozbekistonda-suniy-intellektning-kelajagi-qanday-eng-songgi-trendlar-va-voqealarga-nazar
6. Paulo Jorge Ribeiro. The Impact of Artificial Intelligence on Finance and Accounting Departments. https://www.linkedin.com/pulse/impact-artificial-intelligence-finance-accounting-paulo-jorge-ribeiro